

# AQSHga xizmat safari amalga oshirilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4397-son qarorida avtomobil sanoatida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha belgilangan toshiriqlarni bajarish maqsadida Toshkent shahridagi Turin Politexnika universiteti Amerika Qo'shma Shtatlarining Pitsburg davlat universiteti bilan hamkorlikda Avtomobilsozlik sohasida kadrlarni tayyorlash bo'yicha 2+2 qo'shma ta'lim dasturini joriy etish bo'yicha kelishuvga erishdi.

Toshkent shahridagi Turin Politexnika universiteti rektori J.Sh.Inoyatxodjayev, birinchi prorektor A.A.Karimov va strategik rivojlantirish bo'lim boshlig'i J.A.Abdujalilov Pitsburg davlat universiteti bilan hamkorlik masalalarini muhokama qilish va Avtomobilsozlik texnologiyasi yo'nalishida qo'shma ta'lim dasturining kelishuv shartnomasini imzolash maqsadida 2021 yil 31 oktabr – 7 noyabr kunlari Amerika Qo'shma Shtatlarining Pitsburg shahriga xizmat safariga borishi rejalashtirildi.

Xizmat safari bilan bog'liq barcha harajatlar universitetning hisobidan amalga oshirilishi belgilandi.